
# OILADA KITOBXONLIKNI TARG‘IB QILISH ORQALI MA’NAVIY BARKAMOLLIKKA ERISHISH DAVR TALABI



doi 10.34920/2181-8207/2023/2-065



**Laylo Navro‘zbayeva,**
Karmana tuman Axborot-kutubxona markazi, axborot-bibliografiya xizmati rahbari

**Annotation:** This article emphasizes that raising a child is a complex and responsible task that every parent should work on regularly. Proper and reasonable upbringing in the family is a solid foundation of human life. Human virtue and the beauty of life depend on the unceasing parents’ work in educating their children with foresight. The role of reading is incomparable in this. By encouraging reading in the family, it can become the basis for the rising generation to become responsible for the future of our country. Also in the article highlited the peculiarities of the education of children in the developed countries of the world. This article will help young parents for the first time realize the importance of family and preschool education, improve their pedagogical culture and skills.

**Keywords:** child upbringing, family, the role of reading, children’s education, preschool education, pedagogical culture

**Аннотация:** В данной статье подчеркивается, что воспитание ребенка – сложная и ответственная задача, над которой должен регулярно работать каждый родитель. Правильное и разумное воспитание в семье является прочным фундаментом жизни человека. Человеческая добродетель, красота жизни зависят от непрерывной работы родителей по воспитанию своих детей дальновидно и предусмотрительно. В этом несравнима роль чтения. Поощряя чтение в семье, оно может стать основой для того, чтобы подрастающее поколение стало ответственным за будущее нашей страны. Мы думаем, что эта статья поможет молодым родителям впервые осознать важность семейного и дошкольного воспитания, повысить свою педагогическую культуру и мастерство.

**Ключевые слова:** воспитание ребенка, семье, роль чтения, образования детей, дошкольного воспитания, педагогическую культуру.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, bola tarbiyasi murakkab va ma’suliyatli ish ekanligi, vazifani bajarishda esa, har bir ota-onadan o‘z ustida muntazam ishlashi kerakligi ta’kidlab o‘tilgan. Oiladagi to‘g‘ri va asosli tarbiya inson umrining mustahkam poydevoridir. Inson fazilati, hayot go‘zalligi ota-onaning farzand tarbiyasidagi uzluksiz mehnati farosat bilan, uzoqni bilib ish ko‘rishiga bog‘liqdir. Bunda esa kitobxonlikning o‘rni beqiyosdir. Oilada kitobxonlikni targ‘ib etish orqali esa o‘sib kelayotgan yosh avlodni yurtimiz kelajagi uchun mas’uliyatli inson bo‘lib yetishida poydevor bo‘la oladi. Shuningdek, maqolada, jahonning rivojlangan davlatlarida bolalar tarbiyasi xususiyatlarini yorituvchi ma’lumotlar ham o‘rin olgan. O‘ylaymizki, ushbu maqola yosh ota-onalarning oilada hamda maktabgacha ta’lim-tarbiyani ilk bor muhim deb tushunishlariga, ularning pedagogik madaniyatini, mahoratini oshirishga yordam beradi.

» Oila – muqaddas dargoh. Unda jamiyatimizning eng katta boyligi bo‘lmish bolalar kamol topishadi, bobo meros qadriyatlarimiz ular bilan birga ulg‘ayadi, ajdoddan avlodga o‘tadi. Har bir insonning o‘z ruhiy olami bor. Bu olamda uning uchun eng qadrli, eng suyukli bo‘lgan unutilmas chehralar, lahzalar, e’tiqod va qadriyatlar yashaydi. Hayotimizdagi eng muhim nuqta, barcha ezguliklarni birlashtirib turuvchi markaz esa oiladir. O‘sib kelayotgan bola asosiy tarbiyani oiladan, ota-onasi,

bobo-buvisi va katta yoshli qarindoshlaridan «yuqtirib» oladi. Bolalarni tarbiyalashda o‘rnak bo‘lish kifoyadir. Zero, bolalar ko‘rib, taqlid qilib o‘rganib oladilar. Shunday ekan, oilada o‘zidan kattalarni kitobga mehrini ko‘rib ulg‘aygan bolalar kitobxon bo‘lib voyaga yetadilar.

Go‘dakning birinchi tarbiyachisi bu uning onasidir. Bola hayot, yaxshi-yomon narsalar haqidagi bilim, tasavvurlarini, avvalo, uyida o‘rganadi, buning uchun esa onalar o‘z ustida muntazam ishlashi kerak. Bola uyda o‘ynaydi, kitob o‘qiydi, dars tayyorlaydi, uy yumushlarida ota-onasiga yordam beradi. Oilada shakllangan odatlar butun umrga qoladi. Farzandining yaxshi, odobli mehnatsevar, sog‘lom bo‘lib o‘sishi ko‘p jihatdan onasiga bog‘liq bo‘ladi. Olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, ona tarbiyasini olgan, uning g‘amxo‘rligi, shafqatini har qadamda his etib turgan bolalar butunlay o‘zlarini jamoat ishiga baxshida qilib, farzandlaridan uzilib qolgan onalarning bolalariga qaraganda sog‘lom, aqlli, tarbiyali va ko‘ngilchang bo‘lib ulg‘ayishar ekan. Onaning burchlaridan yana biri farzandlarining yoshlik chog‘laridan boshlab ilmu ma’rifatga qiziqtirib, o‘rgatib borishi kerak. Ilmu fanning qaysi sohasiga qiziqish paydo bo‘lgan farzand oilasi, xalqi va Vatani uchun foyda keltiradigan farzandlar qatoriga kiradi. Darhaqiqat, onalar agar bolalariga yaxshi tarbiya bermasalar, ularga o‘zini, millatini, dinini, Vataniga mehr uyg‘otmas ekanlar, onalik haqqini ado etmagan bo‘ladi.

Hozirgi jamiyatda ayrim onalarning xatolaridan biri, ularning faqatgina bola “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari”ga borgandagina, shu muassasa tarbiyachilari tamonidan tarbiya va ta’lim beriladi deb o‘ylashlaridir. Biz onalar tamonidan tor doirada o‘ylanayotgan bunday fikrlarga qarshi chiqmasdan ilojimiz yo‘q. Chunki, Vatanimizning har tamonlama rivojlanishi shu murg‘ak qalbli o‘sib kelayotgan bolalar qo‘lidadir.

Ta’kidlash o‘rinliki, ma’nan boy insonlargina har bir sohada cho‘qqilarni zabt eta oladi. XXI asr axborot texnologiyalari asrida kerakli axborot va ma’lumotlarni saralab olishga qodir bo‘lishadi. Yot g‘oyalar ta’siriga tushib, aldanishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qomusiy olim, Abu Ali ibn Sino o‘z bitiklarida “Yorug‘ olamga kelib, o‘rgangan ilmu urfonimning aksariyatini faqat o‘n to‘rt yoshimgacha bo‘lgan vaqtda egalladim, qolgan umrim shu yoshda o‘rgangan bilimlarimni mukammallashtirish bilan davom etgan” degan edi. Darhaqiqat, bola yetti yoshigacha bo‘lgan davrda dunyoni anglash, bilish xususiyatlari 70% gacha rivojlanar ekan. Bu davr maktabgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Hech e’tibor berganmisiz, bola yorqin ranglar va yangiliklarga juda o‘ch bo‘ladi. Bir xillik ularni tez zeriktiradi. Menimcha, internetdagi turli o‘yinlarni yangilanishi ham shu tufaylidir. Ziyrak bolalar esa tabora yangilikka qiziqib, o‘zlashtirib olishadi. Buni, albatta yaxshi tamonlari ham bisyor. Ammo, bola yaxshi-yomonning farqiga ko‘p ham boravermaydi, chunki bolaligida uning ma’naviyati to‘la shakllanib ulgurmagan bo‘ladi. Keraksiz, yot buzg‘unchi g‘oyalar ta’siriga tushub qolish, jangari o‘yinlar ta’sirida bola ruhiyatida yomon o‘zgarishlar kuzatilishi, ko‘z kasalliklarining kelib chiqishiga va ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Va bundan tashqari xalqimizning milliy mentalitetiga xos bo‘lmagan turmush-tarzining shakllanishi rivojlana boshlaydi. Bunday hayotiy misollardan kelib chiqib, bolalarni adabiyotga, kitob mutolaasiga yoshligidanoq qiziqtirish yo‘llarini birgalashib targ‘ib etishni taklif etaman. Buning uchun joylardagi mahalla fuqarolar yig‘inlari mutasaddilari bilan hamkorlik ishlarini yanada kuchaytirish kerak. Shuningdek, ertaklar ham bolalar kitobxonligining eng qiziqarli va keng tarqalgan janrlaridan biridir. “Mehr qo‘shig‘i – alla”, “Ertakchi onajon”, “Mening sevimli ertagim”, “Yangi ertak” kabi ertaklar tanlovlari ham bolalar ruhiyatiga ijobiy ta’sir etadi. Bolalar kitobxonligining pedagogik-psixalogik xususiyatlariga ko‘ra, quyidagi guruhlarga ajratish mumkin;

-Maktabgacha yoshidagi bolalar kitobxonligi 2-7 yoshgacha;

-Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi 7-12 yoshgacha;

-O‘rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi 12-17 yosh.

Ko‘rinib turibdiki, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar o‘zlari hali kitob o‘qishni uddasidan chiqa olmaydi, ularga asosan ota-onalar va maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari ko‘magida kitobga va mutolaaga mehr uyg‘otish mumkin. Ma’naviyati yuksak insonning o‘z fikri, maqsadi, dunyoqarashi bo‘ladi. O‘z Vataniga, oilasiga, ota-onasiga mehr-muhabbati yuqori bo‘ladi. Ulug‘ maqsadlar sari intilib, o‘z yurti sha’nini yuqori cho‘qqilarga ko‘taradi.

“Kitob – beminnat ustoz. Har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasi bilan oshno eta oladi” degan edi hazrat Alisher Navoiy. Darhaqiqat, kitob bor xonadondan zulmat chekinadi, ma’rifat nuri yog‘iladi. Yosh avlodni kitobga, ma’naviy boylikka chanqoq etib tarbiyalash bu mamlakatimizdagi barcha onalar, pedagoglar, va albatta, biz kutubxonachilarning ham oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biridir. Zero, Vatan biz kutubxona xodimlari zimmasiga ham

Go‘dakning birinchi tarbiyachisi bu uning onasidir. Bola hayot, yaxshi-yomon narsalar haqidagi bilim, tasavvurlarini, avvalo, uyida o‘rganadi, buning uchun esa onalar o‘z ustida muntazam ishlashi kerak. Bola uyda o‘ynaydi, kitob o‘qiydi, dars tayyorlaydi, uy yumushlarida ota-onasiga yordam beradi. Oilada shakllangan odatlar butun umrga qoladi

Qomusiy olim, Abu Ali ibn Sino o‘z bitiklarida “Yorug‘ olamga kelib, o‘rgangan ilmu urfonimning aksariyatini faqat o‘n to‘rt yoshimgacha bo‘lgan vaqtda egalladim, qolgan umrim shu yoshda o‘rgangan bilimlarimni mukammallashtirish bilan davom etgan”

har tomonlama bilimli va komil inson tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani yuklaganligi barchamizga yaxshi ayon. Shunday ekan yurtimiz kelajagi uchun mas'ul bo'lgan yosh avlod ta'lim va tarbiyasida mas'uliyatli bo'laylik.

Bolalar tarbiyasi turli mamlakatlarda qanday amalga oshiriladi?

"Kitob – beminnat ustoz. Har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasi bilan oshno eta oladi" degan edi hazrat Alisher Navoiy

Janubiy Koreya – Koreya mamlakatida bolalarning tug'ilishi juda katta ahamiyatga ega. Chunki ularning tushunchalariga ko'ra farzand faqatgina ularning nasl-nasablari davomchisi bo'libgina qolmay, balki keyingi hayotlari uchun taqdir taqdim etgan ne'mat, ya'ni ajdodlarning ruhlarini shod qilishadi. Koreyada bolalar ota-onaning doimiy nazorati ostida bo'lishadi. Janubiy Koreya – ayollari ishlamaydigan yoki noto'liq ish kuniga ega uy bekalari hisoblanadi. Doktor Li Mi "Koreys bolalari o'zlarining yevropalik va amerikalik tengdoshlari bilan solishtirganda, haddan tashqari onalariga bog'lanib qolishgan", deb hisoblaydi.

Yaponiyada bola tarbiyasi – ayol kishining mas'uliyati hisoblanib kelinadi. Albatta, XXI asr tarbiya berish taomillari nihoyatda farqlidir. Masalan, avvallari ayollar faqat uy ishlari bilan shug'ullangan bo'lsa, zamonaviy yapon ayollari ta'lim olishadi, ishlashadi va sayohat qilishadi. Shunga qaramay, ayol ona bo'lishga qaror qilsa, u o'zini butunlay oilaga bag'ishlashi kerak. Farzand uch yoshga to'lmaguniga qadar ona bolasini o'zi o'stirishi va ishga chiqmasligi lozim. Ayol asosiy majburiyati ona bo'lishdir. Zero, Yaponiyada o'z majburiyatlarini birovning zimmasiga yuklab qo'yish tartibi mavjud emas. Bundan tashqari, kichkintoy bir yoshga to'lmaguniga qadar ona va bola – bu bir butunni tashkil qiladi. Ona qayerga bormasin, nima ish qilmasin, farzand doim ona bilan bo'lishi zarur! "Bebi-sling"lar, ya'ni bolalarni kenguru qopchasiga o'xshash qopchalarda ko'tarib yurish Yaponiyada juda ilgaridan mavjud bo'lib, uning hozirgi kundagi ko'rinishi mukammallashgan zamonaviy ko'rinishidir.

Janubiy Koreya – Koreya mamlakatida bolalarning tug'ilishi juda katta ahamiyatga ega. Chunki ularning tushunchalariga ko'ra farzand faqatgina ularning nasl-nasablari davomchisi bo'libgina qolmay, balki keyingi hayotlari uchun taqdir taqdim etgan ne'mat, ya'ni ajdodlarning ruhlarini shod qilishadi

Amerika – Oiladagi ta'lim amerikaliklar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar, hatto ishlamasalar ham farzandlariga iloji boricha ko'p vaqt sarflash, ularning muvaffaqiyat va rivojlanishlariga e'tibor berishga burchlidir deb hisoblaydilar. Amerika onalari bolalarining qiziqishini uyg'otish uchun o'yin-kulgularni, shu jumladan, ko'chirish, chizish va tayyorlash, qo'shiqlarni, she'rlarni o'rgatishni alohida ahamiyatga ega deb hisoblaydilar. Amerikalik onalar mustaqillikni qadrlashadi va o'z farzandlarining o'ziga ishonish hissi bilan o'sishni va hayotda mustaqil yashab, muvaffaqiyatga erishishlarini istashadi.

Gollandiya – Bu mamlakatda farzand tug'ilishi bilanoq shaxsga aylanadi. Bolalar erkin va jur'atli qilib tarbiyalanadi. Shu sababli har qanday kichkintoy tanishu notanish kimsa (masalan, avtobus haydovchisi, sotuvchi) bilan bemalol suhbatga kirishib ketaveradi. Kattalar notanish bo'lsa-da, kichkintoy bilan hurmat yuzasidan muloqot qiladilar. Uning savollariga e'tibor bilan javob beradilar.

Shvetsiya – Shvetsiyada ota-onalar farzandlariga erkinlik berish barobarida, ularni o'zlariga teng ko'rishlari tufayli jahonga mashhur. Biroq ular juda qat'iy turib talab qiladigan narsalar ham bor. Masalan, shirinliklarni cheklash. Shved kichkintoylari faqat shanba kunlari shirinlik yeyishlari mumkin.

Italiya – farzand tarbiyasida ona asosiy rol o'ynaydi. U xuddi ona tovuq jo'jalarini qanotlari ostida saqlaganidek, bolalarini bir dasturxon atrofida jam qilib o'tirishni yaxshi ko'radi. Shu sababli Italiyada boshqa yevropa mamlakatlaridan farqli ravishda o'g'illar yoshi o'ttizdan oshsa ham, onasi bilan yashaydi.

Fransiyada – bolalarni chaqaloqlik davridanoq bolalar bog'chasiga berish odatiy holdir. Birinchidan, bu fransuz ayollariga ishlash imkoniyatini bersa, ikkinchidan, ular go'dakligidanoq jamoaga moslashadi va mustaqil bo'lib o'sadilar. 6 yoshidanoq fransuz bolakay o'zi mustaqil maktabga boradi, do'kondan narsa xarid qiladi, uyda yolg'iz qoladi. Shunga qaramay, fransuzlar 30-35 yoshgacha ota-ona uyida yashashlari va o'z oilasiga ega bo'lishga shoshilmasliklari mumkin. Onalar o'z farzandlariga ovozlarini ko'tarib urishishsa-da, hech qachon urmaydilar. Jamiyat qator qonunlar orqali bola huquqlarini himoya qiladi. Ota-onalar va vasiy shaxslar birinchi galda bolalarning rivoji hamda sog'ligi uchun mas'uldirlar.

Germaniyada – bolalarning rivojiga 3 yoshdan boshlab katta e'tibor beriladi. Onalar o'z farzandlarini boshlang'ich bosqichda haftada bir marta, kattaroq bo'lganlarida bir necha marotaba maxsus rivojlantirish guruhlariga olib borishadi. Maqsad jamoa bo'lib o'ynash, o'zaro muloqotga o'rgatishdir. Faqatgina mazkur guruhlarga bola borganidan so'nggina uni bolalar bog'chasiga berishadi. Chunki farzandning bog'chaga ko'nikishi oson kechadi va bolalar bu yerda o'zlarini erkin his qiladilar. Bog'chada bolaga o'z huquqlarini, ularni hech kim xafa qilishi mumkin emasligini o'rgatishadi. Bu nafaqat bolalarga qo'l ko'tarish, balki kattalar tomonidan ularga ovozni balandlatish, xafa qilishning oldini olish ham demakdir. Bolalarga kichik yoshida televizor ko'rishga ruxsat berilmaydi va iloji bori-

cha soat 20.00 da uxlashga yotqizishadi, chunki kichkintoyni erta uyg‘onishga, kichik yoshidanoq o‘z kunini rejalashtirish, muhim sanalar (qarindoshlarning tug‘ilgan kunlari)ni yodda saqlash, o‘z xarajatlarini nazorat qilishga o‘rgatishadi.

Farzandlarida xushmuomalalikni rivojlantirish maqsadida onalar ularni rivojlantirish guruhlariga olib borishadi. Bolalar bog‘chalari asosan kichkintoylarni jamoada o‘zini tutish, muloqotda bo‘lishga o‘rgatadi, yozish va o‘qish faqatgina maktabdan boshlab o‘qitiladi.

Angliyada – bolalar bosqichma-bosqich tarbiyalanishadi. Chunki bu yerda kech turmushga chiqish yoki uylanish odatiy hol. Ko‘pincha inglizlar 35-40 yoshlarida ota-onalik baxtiga erishishadi. Shuning uchun ham farzand tarbiyasiga juda katta va jiddiy e’tibor berishadi. 2-3 yoshidan boshlab unga dasturxon atrofida o‘zini tutishni, tevarakdagi odamlar bilan muomalada bo‘lishni, o‘z hissiyotlarini yashirishni o‘rgatishadi. Angliya shaharlarining ko‘chalarida bolasini erkalayotgan ota-onani kamdan kam uchratish mumkin.

Avstraliyada – farzandiga jazo berish yoki bermaslikni ota-onalarning o‘zlari hal qiladi. Maktabga erta, ya’ni 5 yoshdan borishlarini inobatga olgan holda muassasada o‘qish va yozish o‘rgatilmaydi. Tarbiyachi hech qachon onaga bolani yomonlamaydi. Bog‘chadan tashqari mamlakatda ko‘plab bolalar klublari mavjud. Ular bolalalarning qiziqishlariga qarab tashkil etiladi.

Isroilda – farzand tarbiyasi alohida e’tiborda, chunki bu yerda bola oilaning markazi hisoblanadi. Bog‘chalarga go‘daklar 6 oyligidan qabul qilinadi. Davlat qaramog‘idagi maktabgacha ta’lim muassasalaridan tashqari mamlakatda oilaviy tipdagi bog‘chalar – “mishpaxton”lar keng tarqalgan. Bunday bog‘chalarning guruhlarida bolalar soni 5 nafardan oshmaydi va tarbiyalanuvchilarni har tomonlama rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Barcha bog‘chalar kompyuterlar, kutubxonalar bilan jihozlangan. Har hafta tarbiyalanuvchilar, albatta, ekskursiyalarga olib chiqiladi, spektakllar qo‘yish, sport va musiqa bilan shug‘ullanishga e’tibor qaratiladi.

Xitoy – xalqi butun dunyoga o‘zining mehnatsevarligi bilan mashhur. Xitoyliklar juda ham intizomli va sportsevar xalq. Albatta, farzand tarbiyasida ham bu o‘z aksini topgan. Agarda Yevropa mamlakatlarida bola tarbiyasiga asosan ota-ona mas’ul bo‘lsa, Xitoyda bu narsa davlat zimmasidadir Uch oydan boshlab chaqaloq bog‘chaga topshiriladi. Bir yarim yoshdan boshlab kichik xitoyliklar raqsga tushish, ashula aytish, rasm chizish, sanash va harflarni tanishga o‘rgatila boshlanadi. Boshlang‘ich sinfdanoq intizomli bo‘lish, injiqlik qilmaslik va yaxshi o‘qish talab etiladi. Itoatkorlik va “men”ni yuzaga chiqarmaslik xitoy tarbiyasining asosidir.

**Bola tarbiyasi borasidagi qiziqarli faktlar**

*Avstriyada bola uchun boshqa mamlakatlarga nisbatan eng ko‘p o‘yinchoq sotib olinadi.

*Angliyada agarda bola shamollasa, uning tana harorati oshib yo‘talsa, u kasal hisoblanmaydi va maktabdagi darslarni qoldirishga ruxsat berilmaydi.

*Belgiyada kichkintoylar uch yoshdan boshlab maktabga borishadi.

*Yevropada eng tarbiyasiz bolalar italiyaliklar hisoblanadi. Ular jamoat joylarida o‘zlarini tutishni bilishmaydi.

*Gonkongda bola uchun enaga yollanilmaydi. Bolalar chaqaloqligidanoq bog‘chaga beriladi.

*Braziliyada bola uchun eng oliy jazo – uni futbol o‘ynashdan mahrum qilishdir.

*Kubada hattoki 7-8 yoshdagi bolalar ham darsdan so‘ng ishlashga majburdir.

*Germaniyada 90 foiz oilalarda 8 yoshgacha bolaga televizor ko‘rish ta’qiqlanadi, 8 yoshga kirganida esa unga faqatgina bolalar uchun mo‘ljallangan ko‘rsatuvlarni tomosha qilishga ruxsat beriladi.

Har bir davlatda bola tarbiyasiga yondashuv turli xil bo‘lsa-da, ularning barchasini bir narsa – farzandga bo‘lgan mehr-muhabbat birlashtirib turadi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinadiki, ma’naviy barkamol kitobxon avlod tarbiyasida oila muhim va mustahkam poydevor. Shu bois jamiyatda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini rivojlantirish borasidagi har qanday faoliyatda oila bilan hamohang, hamfikr ish yuritish ko‘zlangan maqsadlarga erishishga munosib zamin yaratadi.

Farzandlarida kommunikabellikni rivojlantirish maqsadida onalar ularni rivojlantirish guruhlariga olib borishadi. Bolalar bog‘chalari asosan kichkintoylarni jamoada o‘zini tutish, muloqotda bo‘lishga o‘rgatadi, yozish va o‘qish faqatgina maktabdan boshlab o‘qitiladi

***Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati***

*1. Mirziyoyev SH. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.*

*2. Xudoyberdiyeva G. Keksalarning yosh onalarga maslahatlari. Chaqaloq, Tarbiya.*

*3.Qodirov M, Quronov M .Yosh ota-ona kitobi. Uzliksiz ma’naviy tarbiya trilogiyasi. 1-qism [ Matn]: 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha qo‘llanma, – Toshkent: Muharrir, 2018.*

*4.Zaynutdinova M. Bola parvarishi. Psixologiya. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021.*

*5.httos//muslimaat.uz maqola* ■